



AGROLOGISTIKADA AVTOTASHUVLARNI SAMARALI BOSHQARISH

Sultonova Dilnoza

Andijon agrotexnologiyalari va qishloq xo'jaligi intstituti asistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7298403>

ARTICLE INFO

Received: 26th October 2022
Accepted: 04th November 2022
Online: 06nd November 2022

KEY WORDS

Agrologistika, fermer xo'jaligi, iqtisodiyot, axborot, texnologiya, moliya, infratuzilma.

ABSTRACT

Bugungi kunda logistika ishlab chiqarishini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Shu sababdan ushbu maqolada mamlakat qishloq xo'jaligiga agrologistika xizmatlarini joriy etishda avtotashuvlarni samarali boshqarish xususida fikr yuritiladi. Agrologistika xizmatini yo'lga qo'yilishi qishloq xo'jaligida agrotexnik qoidalarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, sohada agrologistikani tashkil etishda qator muammo va kamchiliklar xususida ham to'xtalib o'tilgan hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ham fikr-mulohazalar ilgari surilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida logistikaning ahamiyatini belgilaydigan iqtisodiy, tashkiliy-iqtisodiy, axborot va texnik omillari mavjud. Bularning barchasi o'z xususiyatiga ko'ra muayyan vazifalarini ado etadi. Logistikani joriy etishning muhim ahamiyati shunda-ki, mamlakatda pul-tovar munosabatlarining jadallashuvi, korxonalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning kengayishi, ishlab chiqarish infratu-zilmalarining rivojlanishi, korxonalarining iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash bilan bog'liq.

Respublikadagi real iqtisodiy tarmoqlardagi sub'ektlarning yetarli darajada aloqaga kirishmaganligi, o'zaro hamkorlikdagi birlash-tiruvchi kuchga ega bo'lmaganligi, moddiy oqimlarning yaxlit mexaniz-mining rivojlanmaganligi shu kunning dolzarb masalasi bo'lib turibdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Logistika” so'zi deyarli barcha yevropa tillarida mavjud bo'lib, lekin ular turlicha ma'no kasb etadi. Vizantiya imperiyasida logistikani qo'llashdan maqsad “Armiyada ish haqini to'lash, ehtiyojlarni qondirish, uni to'g'ri qurollantirish va taqsimlash, ya'ni o'z qurolli kuchlari harakati va taqsimotiga rahbarlik qilish”[5] deb ta'riflagan bo'lsa, boshqa olim o'z tadqiqotida [G.V. Leybnis, 1702]] bu matnni “matematik logika” deb atadi. XIX asrda [Antuan-Anri Jomini, 1861] logistikani “Harbiy qismlarda rejalashtirish, nazorat qilish va yetkazib berish, qo'shinlarni joylashtirish joylarini aniqlash, armiya uchun transport xizmatlari va boshqalarni amalga oshirishda qo'mondonlikning amaliy san'ati sifatida ta'riflaydi”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL



Agrologistika – agrosanoat sektorini kompleks rivojlantiruvchi samarali yo‘nalish hisoblanadi. U agrar ishlab chiqarish, mahsulotlarni qayta ishlash, matlubot (savdo) sektorlarini o‘zida birlashtiradi. Ular bir-biri bilan ishlab chiqarish, texnologik, iqtisodiy, axborot, moliyaviy, mehnat va boshqalar orqali o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘ladi. Mahsulot va xizmatlar aylanadigan maydonda tovarning harakat jarayonlarini, shu jumladan axborot, transport va moliyaviy jihatlarni mikro hamda makro darajalarda, ya‘ni ayrim korxonalar va savdo-vositachilik tuzilmalari hamda iqtisodiyotning turli tarmoqlarida optimallashtirish va tartibga solish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Mamlakat qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish uchun agrologistikani keng joriy etish borasida muayyan ishlarga qo‘l

urilmoqda. Prezident Sh. Mirziyoevning 2019 yil 29 iyulda “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [1] hamda 2020 yil 11 avgustda “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki hamda xalqaro taraqqiyot uyushmasi ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[2] qarorlari qabul qilindi. Ushbu qarorlarga asosan 2019 – 2024 yillarda 3 mln tonna quvvatga (367 mln. dollar) ega bo‘lgan 8 ta yirik va 424 ming tonna quvvatga ega bo‘lgan 39 ta zamonaviy agrologistika markazlarini tashkil etish belgilangan.

1-Jadval
2021-yilda ishga tushirilishi rejalashtirilgan agrologistik markazlar

№	Hududlar nomi	01.01.2021 yil		2021 yil jami rejasi		01.01.2022 yil	
		soni	ming.tn	soni	ming.tn	soni	ming.tn
Respublika bo‘yicha:		51	737,6	20	282,1	71	1019,7
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3	19	1	5	4	24
2	Andijon viloyati	3	77	3	27,1	6	104,1
3	Buxoro viloyati	4	55	3	55	7	110
4	Jizzax viloyati	3	26			3	26
5	Qashqadaryo viloyati	2	8			2	8
6	Navoiy viloyati	1	5,5			1	5,5
7	Namangan viloyati	3	26,8	2	35	5	61,8
8	Samarqand viloyati	7	161,1	3	46	10	207
9	Surxandaryo viloyati	8	111,3	2	55	10	166,3
10	Sirdaryo viloyati	3	81,3			3	81,3
11	Toshkent viloyati	1	10	2	33	3	43
1	Farg‘ona viloyati	9	102,4	3	16	12	118,4



2							
1 3	Xorazm viloyati	3	24,2			3	24,2
1 4	Toshkent shahar	1	30	1	10	2	40

Resurslar bilan ta'minlash ombor infratuzilmasi imkoniyat-laridan yanada to'laroq foydalanish uchun tovar aylanishi hajmlarini shu jumladan faoliyat turlari va xizmatlarni diversifikatsiya qilish (yangi xaridorgir tovarlarni muomalaga chiqarish, taqchil mahsulotlarning o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish, yangi xizmat turlarini o'zlashtirish va b.) hisobiga izchil ko'paytirish lozim. Xizmat ko'rsatish tarmoqlari, qishloq xo'jalik mahsulotini tayyor-lash, saqlash va transportda tashish tarmoqlari jadal sur'atlarda rivoj-lanishi va samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi chora-tadbirlar tizimini belgilash lozim. Bunda infratuzilmaning transport, idish xo'jaligi, saqlash va tayyorlov kabi o'zaro bog'langan bo'g'inlari kompleks rivojlanishini ta'minlash nazarda tutiladi. Infratuzilma qishloq xo'jaligining rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olgan holda shakllantirilishi lozim.

Logistika – bu xarajatlarni qisqartirish yo'llarini izlash, moddiy ta'minot, mahsulotni saqlash va sotish, marketing faoliyatini yaxshilash, ta'minotchilar, iste'molchilar, yetkazib beruvchilar o'rtasida o'zaro aloqani mustahkamlash, moddiy oqimlar harakati texnologiyasini takomillashtirish kabi yo'nalishlar orqali amalga oshadi. Eng muhim maqsad – xarajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishdir.

Logistika markazlarining asosiy funksiyasi quyidagilardan iborat:

- qishloq xo'jalik mahsulotlarini qabul qilib olish;
- mahsulotlarning tovar partiyalarini butlash;
- mahsulotni dastlabki qayta ishlashni tashkil etish va ishlov berish;
- mahsulotlarning ulgurji savdosini tashkil etish;
- mahsulotlar ko'rgazma yarmarkalari, marketing tadbirlari va hosil bayramlarini uyushtirish.

Hududlarda fermer xo'jaliklari soni ko'p bo'lishiga qaramay, ular maydaligi tufayli mahsulotlari kam. Ular yetishtirgan hosilni katta xaridorlarga sotish uchun bir qancha fermer xo'jaliklarining mahsulotlarini jamlaydigan logistik markazlar zarur. Bu markazlar mahsulotlarni qabul qilib olishi uchun zaruriy saqlash va boshlang'ich qayta ishlash imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim.

XULOSA VA MUNOZARA

Agrologistika agrosanoatni barqaror rivojlantirishda favqulod-da muhim rol o'ynaydi. Hududlarda agrologistika xizmatini tashkil etib, fermer xo'jaliklari bilan mahsulot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, yuklarni tashish, savdo va boshqa masalalarda zanjirli aloqa o'rnatish kerak. Ya'ni, bunda agrologistikaning elementlari bo'lgan avtotransport xizmati, ishlab chiqarishga texnikaviy-servis xizmati, qayta ishlash va saqlash, mahsulotni xarid qilish va sotish, eksport qilish bilan shug'ullanuvchi tuzilmani vujudga keltirishi lozim.



References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 29.07.2019 y. N PQ-4406.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 11.08.2020 y. N PQ-4803.
3. Madaliev A.A. "Agrosanoatni kompleks rivojlantirishda boshqaruvni demokratlashtirish asoslari" Monografiya. – T.: Navro'z, 2018 y.
4. Kalchenko A.G. Logistika asoslari. - Kiev: Bilim, 2019 yil.
5. Eliseev E. Dunyoni qamrab oluvchi logistika. Korxonani boshqarishning yangi kontsepsiyasi // Marketolog. 2010. № 9. -S12-13.
6. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi ma'lumotnomasi